Xalq deputatlari Romitan tumani Kengashi
Q A R O R I

2023 - yil 26 - may VI-85-101-2-40-K/23 Romitan tuman hokimligi

Romitan tumani mahalliy budjetining 2023 yil I chorak ortirilgan manbalarini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 8 apreldagi KQ-331-IV-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2023 yil I chorak ortirilgan manbalarini yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflarni ko‘rib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILDI:

1. Romitan tumani mahalliy budjetining 2023 yil I chorak ortirilgan manbalarini yo‘naltirish to‘g‘risida tuman hokimligi moliya bo‘limi mudiri U.Jumayevning taklifi ma’qullansin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (U.Jumayev)ga:

- O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksi talablari asosida tuman mahalliy budjetining parametrlariga tegishli o‘zgartirishlarni kiritish, belgilangan tartibda xarajatlar smetalari va shtatlar jadvallarini ro‘yxatdan o‘tkazish;

- mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirni o‘z vaqtida moliyalashtirish uchun tuman hokimi farmoyishlari loyihalarini belgilangan muddatda tayyorlash;

- ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi yuzasidan tizimli monitoring yuritish hamda iqtisod qilingan mablag‘larni tuman mahalliy budjetiga to‘liq qaytarish bo‘yicha tegishli o‘zgartirishlar kiritishga ruxsat etilsin.

3. Tuman g‘aznachilik bo‘linmasiga:

- ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni o‘z vaqtida ro‘yxatdan o‘tkazish va xarajatlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (O.Ismatov)ga topshirilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman Kengashi raisi **Barnoyev U. I.**

Xalq deputatlari Romitan tuman Kengashining
2023 yil 26 maydagi
VI-85-101-2-40-K/23-son qaroriga
1-ilova

Mahalliy byutjet 2023-yil birinchi chorak uchun hisobidan ajratilgan mablag'lar to'g'risida taklif

№	Tadbirlar nomi	Ajratilgan mablag' miqdori	Mablag' oluvchining nomi
1	"Jamoatchilik tashabbusi" jamg‘armasining tegishli hisob raqamiga mablag‘ o‘tkazib berish	321,2	Romitan tuman hokimligi
2	“Ayollar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga	161,0	Romitan tuman hokimligi
3	“Yoshlar daftari”ga kiritilgan fuqarolarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga	161,0	Romitan tuman hokimligi
4	"Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash" jamg‘armasiga o‘tkazib berish choralari ko‘rish	15,0	Romitan tuman hokimligi
5	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 dekabrdagi PF-46-sonli Farmoniga asosan Daraxt zararkunanda qarshi kurash jamg‘armasiga	21,0	Romitan tuman Obodonlashtirish boshqarmasi
6	Romitan tuman Bolalarni sog‘lomlashtirishga ko‘maklashish jamg‘armasiga, oromgohlarni tayyorlash	107,0	Romitan tuman hokimligi
7	Tuman hokimligi apparat xodimlarini iqtisodiy tomondan qo'llab -quvvatlash maqsadida oziq-ovqat to'lovlari uchun	50,1	Romitan tuman hokimligi
8	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xodimlarni iqtisodiy tomondan qo'llab -quvvatlash maqsadida oziq-ovqat va ustama to'lovlari uchun	15,1	Romitan tuman hokimligi
9	Oila va xotin-qizlar bo'limini iqtisodiy tomondan qo'llab - quvvatlash maqsadida oziq-ovqat to'lovlari uchun	3,7	Romitan tuman hokimligi

10	Ijtimoiy kunikma markazni iqtisodiy tomondan qo'llab -quvvatlash maqsadida oziq-ovqat to'lovlari uchun	1,2	Romitan tuman hokimligi
11	2023-yil birinchi chorakda Tuman hokim o'rinbosarlarini rag'batlantirish uchun	21,4	Romitan tuman hokimligi
12	2023-yil birinchi chorakda Tuman hokimligi Moliya bo'limi xodimlarining oziq-ovqat to'lovi uchun	18,4	Romitan tuman hokimligi moliya bo'limi
13	Tuman hokimligi ishchi-texnik xodimlariga birinchi yarim yillik uchun har oylik ustama to'lash uchun	22,5	Romitan tuman hokimligi
14	Tuman hokimining jamoatchilik masalalari bo‘yicha maslahatchisiga ijara asosida ajratilgan avtomashina uchun (3 oylik to‘lov)	21,0	Romitan tuman hokimligi
15	Tuman hokimligi oshxonasiga olingan jixozlari, monitoringa 2 dona konditsioner	14,8	Romitan tuman hokimligi
16	“Raqamli xalk deputatlari Kengashi” tizimi internet xizmati uchun	12,1	Romitan tuman hokimligi
17	Tumanda o‘tkazilgan Xorijiy tillarni rivojlantirish, Zakovat intellektual o‘yini g‘oliblarini munosib taqdirlash maqsadida	13,4	Romitan tuman hokimligi
18	Tuman hokimligi binosiga Quyosh panellari o'rnatish uchun	91,1	Romitan tuman hokimligi
	Жами	**1071,0**	X